

**Tibbiyot oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlari bo'yicha
pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun
4855-son SHARTNOMA**

Toshkent sh. 10.01.2022

Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi nomidan Ustav asosida ish olib boruvchi direktori **X.A. Akilov**, bundan buyon matnda "Ijrochi" deb ataluvchi bir tomondan, bundan buyon matnda "Buyurtmachi" deb ataluvchi **Respublika UT va FXMO va UIMNavoiy filiali, B.K. Djonyalov**, ikkinchi tomondan, birgalikda "Tomonlar", deb ataluvchilar mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

I. Umumiy qoidalar

1.1. Shartnoma **Buyurtmachi** tomonidan o'qishga yuborilgan tinglovchilarni o'qitish masalalarida **Ijrochi** va **Buyurtmachi** o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi hamda **Ijrochi** va **Buyurtmachining** ushbu Shartnomaning amal qilish davrida o'zaro huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklarini aniqlashga mo'ljallangan.

1.2. Shartnoma amaldagi qonunchilikni hisobga olgan holda tuziladi va tomonlar uchun, shu jumladan **Ijrochi** va **Buyurtmachi** o'rtasida sud va boshqa organlarda nizolarni hal qilishda, qonuniy majburiy hujjat hisoblanadi.

1.3. Tomonlarning ushbu shartnomada nazarda tutilmagan munosabatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari normalari bilan tartibga solinadi.

II. Shartnoma predmeti

2.1. **Ijrochi Buyurtmachining** o'qishga qabul qilingan kontingentiga kunduzgi ta'lim shaklida davlat ta'lim standarti doirasida kalendar reja va o'quv rejalariga, shu jumladan Ijrochining individual va ta'lim dasturlariga muvofiq, umumiy qiymati **525000** so'mlik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish majburiyatlarini oladi:

T/r	Kursning nomi (ta'lim dasturing kodi va nomi)	Kursantlar soni	To'lov miqdori
1.	Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish kafedrasini, 5.1.37.Tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish va buxgalteriya hisobini tashqil etish asoslari (10.01.2022-15.01.2022, MMO ,36)	1	525000 (525000*1)
		1	525000

2.2. **Tinglovchilar** o'quv dasturini o'zlashtirganidan, yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tganidan so'ng ularga belgilangan namunadagi ta'lim va malaka haqida hujjat beriladi.

III. Tomonlarning o'zaro munosabatlari

3.1. **Ijrochi** quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. mustaqil ravishda o'quv jarayonini amalga oshirish, **Tinglovchilarni** baholash tizimlari, shakllari, tartibi va oraliq baholash davriyligini belgilash;

3.1.2. **Tinglovchilarga** O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, **Ijrochining** ta'lis hujjatlari, ushbu Shartnoma xamda **Ijrochining** mahalliy normativ hujjatlariga muvofiq rag'batlantirish choralari va intizomiy jazo choralari qo'llash.

3.2. **Buyurtmachi Ijrochidan** ushbu Shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan xizmatlarni tashkil etish va lozim darajada ko'rsatilishini ta'minlash masalalari to'g'risida ma'lumot olish;

3.3. **Tinglovchilar** quyidagi huquqlarga ega:

3.3.1. **Ijrochidan** ushbu Shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan xizmatlarni tashkil etish va lozim darajada ko'rsatilishini ta'minlash masalalari to'g'risida ma'lumot olish;

3.3.2. mahalliy normativ hujjatlarda belgilangan tartibda, o'quv dasturini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan Ijrochining mol-mulkidan foydalanish;

3.3.3. mahalliy normativ hujjatlarda belgilangan tartibda **Ijrochi** tomonidan tashkil etiladigan ijtimoiy, madaniy, sog'lomlashtirish va boshqa tadbirlarda ishtirok etish;

3.3.4. o'zining bilimi, qobiliyatlari, malakasi va ko'nikmalarini baholash hamda ushbu baholash mezonlari haqida to'liq va ishonchli ma'lumotlarni olish.

3.4. **Ijrochi** quyidagilarga majbur: